

ERKIN VOHIDOVNING “RUHLAR ISYONI” DOSTONIDA XARAKTER VA IJTIMOIY MUHIT TALQINI

Rahmatova Mahfuza Ravshanjon qizi

FDU, Filologiya fakulteti tillarni o‘qitish (o‘zbek tili)

1-bosqich talabasi

<https://doi.org/10.5281/zenodo.20677758>

Annotatsiya

Bu asar yaratishida shoirning pok qalbi yashirilgani hech kimga sir emas. Mazkur doston mashhur, iste’dodli va yurt dardi bilan yashagan fidokor Bengal shoiri Nazrul Islomning fojiali va sharaflil hayot yo‘liga bag‘ishlangan. Unda inson erkinligi, mustamlakachilikka qarshi isyon va haqiqat tantanasi, sabr va chuqur mulohaza va hatto odob axloq haqida falsafiy mushohada qilinadi. Asar ,hurlik g‘oyalari, dinlarning muvozanvatanparvarlikati bilan sug‘orilgan bo‘lib, keng kitobxonlar ommasiga mo‘ljallangan.

Kalit so‘zlar: doston, isyon, islom, hindu, mustamlakachilik, Sharq mamlakatlari, Yevropa, she'r

Annotation

It's no secret that the poet's pure heart was hidden in the creation of this work, This epic is dedicated to the tragic and honorably life of the famous, talented and selfless Bengali poet Nazrul Islom ,who lived with the pain of his homeland, It contains philosophical observations about human freedom, rebellion against colonialism and the triumph of truth, patience and deep reflection and , even decency. The work imbued with the ideas of patriotism, freedom and the balance of religions and is intended for a wide readership

Key words: epic, rebellion, Islam, Hindu, colonialism, Eastern countries, Europe poetry

Аннотация

Не секрет, что в создании этого произведения было заложено чистое сердце полета. Эта эпическая поэма посвящена трагической и почётной жизни знаменитого, талантливого и самоотверженно бенгальского поэта Назрула Ислама, который жил.

С болью своей родины. Она содержит филологические размышления о свободе человека, восстании против колониализма и торжестве истины, терпении и глубоком самоанализе, и даже порядочности. Произведение проникнуто идеями патриотизма, свободы и баланса религий и предназначено для широкой читательской аудитории.

Ключевые слова: эпос, восстание, ислам, индуизм, колониализм, страны, Востока, Европа, поэзия

Kirish

O‘zbek badiiy tafakkuri tadrijida zabardast shoir Erkin Vohidovning alohida o‘rni bor. Temirga temirchi, tilloga zargar, gulga bog‘bon mehr berib, parvarishlab shakillantirgandek, so‘zlar ham Erkin Vohidovning qalamida shunday sayqallangan. Shoirman degan kishi o‘z davrining tepib turgan yuragi bo‘lishi shart ekan. Erkin Vohidov ham mustaqillikka chalgan g‘alayonli o‘n yilliklar kayfiyatini eng yorqin va to‘la ifoda qilgan. Ijodkorning qalbidagi dardi bilan vujudga kelgan, xorijda va o‘zimizda ham sevimli bo‘lgan doston bu albatta "Ruhlar isyoni" dostonidir. Bu asar haqiqiy mo‘jizadir, chunki unda barcha zamon, inson muammolari, psixologiyasi, falsafiy yoritib berilgan. Manashu narsa o‘zbek badiiyatining cho‘qqilaridan biri bo‘lgan va bu davom etmoqda.

Doston "Muqaddima", "Adabiyot haqida rivoyat" va beshta fasldan iborat. Shoir dostonni Nazrul Islomning soʻzlari bilan boshlaydi.

Tugʻilgansan ozod, mudom

Ozod boʻlib qol.

Dostonning nihoyasi esa „Dehli, 20-mart, 1979-yil deb boshlanadi. Shoirning soʻzlarini tahlil qilar ekanmiz, bir biriga zid boʻlgan misralarni koʻp uchratamiz:

Quvonch -gʻam, hindu-musulmon, kecha-kunduz

Ammo shoir ularni shunday isteʼdod bilan barpo qildiki, bu asarda qandaydir kuch, yaʼni soʻzning qudratli kuchi borligini dostonni oʻqiyotganingizda faxmlaysiz. Dostonda shoirning vazifasi shunchaki, sheʼr yozish yoki oq qogʻozni qoralash emas. Bu isteʼdod orqali odamlarni koʻzni ochish va xalq dardini kuylash, dardga malham boʻlishi uqtiriladi. Chunki haqiqiy haqiqiy shoir doim el dardi bilan yashaydi. Buni dostonning boshidagi soʻzlar bilan faxmlash mumkin;

Tugʻilgansan ozod, mudom

Ozod boʻlib qol.

Hamda shoir Nazrul Islom qamoqda turib Pushkin, Navoiy, Nasimiy kabi shoirlar bilan hayolan suhbatlashadi va ularning hayoti va oʻz hayoti koʻz oldidan oʻtadi. Inson ozod tugʻilganmi, ozod yashashligi, uni qadriga yetishi kerak ekanligi yoritilgan. Dostonning boshida dunyoning asosi ikki ziddliklardan iborat boʻlishi yaʼni har qanday narsani salbiy va ijobiy tomoni boʻlishi haqida soʻz boradi. Hamda inson oʻz taqdiridan qocha olmasligi namoyon boʻlgan.

Xalos etmas bitta arqon,

Nuqta qoʻymas,

Bitta oʻq.

Chidamoqqa yoʻqdir imkon,

Qochmoqda ham

Chora yoʻq.

Nega aynan Nazrul Islom va nega Hindiston haqida yozilgan degan savol boʻladi? Chunki oʻylab qarajak Hindiston bizning Boburiylar yurtidir. Bu buzgʻunchiliklar nafaqat Hindiston, balki bizning xalqimiz uchun ham buzgʻunchilik ekanligini nazarda tutgan. Hamda Nazrul Islom orqali biz oʻz jadidlarimizni koʻrishimiz mumkin.

"Jaholat toʻgʻrisida rivoyat"ida insonlar yangilikni toʻgʻri qabul qila olmasligi va u bilan koʻplab sirlarni va moʻjizalarni yoʻq qilib yuboradilar. Yaʼni Hakim ularni davoladi, ammo soʻqir kishini koʻzini ochdi. Lekin insonlar uni „Shayton“, deb aytadilar va arqon va suvni unga uvol koʻrib, tiriklayin yoqadilar. Hakim esa uni tezroq oʻldirishlarini va bu dunyo muammolaridan tezroq qutulishni soʻraydi:

"Yoqing, -deya soʻradi u,-

Olov boʻlsin sarbaland.

Tezroq ketay

Bu dunyodan,

Hech toqatim qolmadi.

Mendan shifo oldi odam,

Olam- shifo olmadi.

Bu dostonda Erkin Vohidov butun Sharq ellarini qiyinchiliklarini ochib berganligini doston oxirlab qolganda koʻrishimiz mumkin.

Asli qismat to asirlik

Iztirob, iz yoshimni?

Sharq chindan ham ming asrlik
Qotib qolgan toshmidi.

XVI-XIX-asrlarda Sharqda deyarli rivojlanish ancha susaygan. Bu paytda Yevropa dunyoviy rivojlandi va o'z davrining buyuk davlatlarini mavh etdi. Boshiga qora kunlarni yog'dirdi. Bularga shoir shunchaki qarab dunyoni tashlab keta olmaydi.

Odamzodning
Ruhi bilan
Yashayver falakda
Bu shoirning dilin ezgan
Istibdodning darddir.

Hamda iste'dod hech qachon nohaqlikka chiqay olmaydi. Xalqning dardini chuqur mulohaza qilib, uni yurakdan anglasa, ijodkor haqiqiy asarni yaratadi. Dostonning bosh qahramoni bo'lgan Nazrul Islom bunga yaqqol misol qilib berilgan.

O'rab uning naq yurakdek
Ona Hindistonni
Zobitlar oq o'rgimchakdek
So'rardilar qonin

Bu yerda oq zobitlar Hindistonni mustamlaka qilgan Angliya lashkarlaridir. Hamda bu misralarda:

Bir- birini beomon
So'yar edi taqvodan mast
Hindu bilan musulmon

Ikki xalq, ikki din vakillari hindu va musulmon o'rtasiga nifoq solish orqali ularni bir-biriga qarshi qiladi. Ammo Nazrul bunga shunchaki qarab tura olmadi. Olamoni tinchlantirishga bularni asl sababini tushuntirishga harakat qildi. Lekin uni qo'zlalanchi sifatiga ayblab zindonga tashladilar. Eng qizig'i bir tomonida hindu, bir tomonida esa musulmon edi. U yolg'izlikda zindonda qancha she'rlar bitdi. Hayolida Pushkin, Navoiy, Nasimiy kabi shoirlar bilan so'zlashdi. Oxiri bu dunyo zulmlaridan o'lim bilan baham topdi. Ammo doston shunday yakun topmadi. Zindondan uning faqat jasadini topdilar va ming afsus, nadomatlar bilan dafn etdilar va hotirladilar. Dostonni birinchi o'qigan inson uni faqat Nazrul Islom haqida deb o'ylaydi. Ammo yaxshilab mushohada qilinsa, Nazrul Islom orqali o'zini namoyon qilgan deyish mumkin. Rivojlanishi qotib qolgan xalqlarni dardini shoir iste'dodi orqali yuzaga chiqargani ko'zga tashlanadi. Bu asar 1978-1979-yillarda yozilgan, bu paytda O'zbekiston ham SSSRga qaram edi. Bu doston qaram xalqlarni uyg'otishga katta kuch bo'ladi. Doston haqida Ulug'bek Hamdam fikricha; "Adabiyotshunos olim ushbu dostonni "jaholatga qarshi isyon" deb atagan. U asarni shoir ijodining eng baland cho'qqilaridan biri, inson ruhining erkinlik sari intilishini ifodalovchi Buyuk asar sifatida baholanadi"-deydi. Mana shu misralar orqali ham doston ajoyib burilish bo'lganligi va haqiqatga tikka qarashi insonlar qalbidan joy oladi.

Shoir vafot etsa ham, uning asarlari, xalq uchun doimo yashab keladi, dars uchun davo bo'lib qoladi.

Saqla, deydi, yurak qo'ring
Dil o'tashning so'nmasin
Umring ado bo'lmay turib
Cho'g'ing ado bo'lmasin.

Xar bir xalqning o‘z tarixi bor, qiyinchiliklarni aks ettirgan va dard to‘la dilni yondirgan iste’dodlar, ijodkorlar yetarli. Ammo haqiqiy shoir yagona bo‘ladi. Bu albatta har qanday adabiyotshunosni, filologiyani va shoirning qalbini junbushga keltiruvchi so‘z kuchdir.

Adabiyotlar, References, Литературы:

1. Erkin Vohidov. *Ruhlar isyoni*. – Toshkent: G‘afur G‘ulom nomidagi Adabiyot va san‘at nashriyoti, 1979.
2. Erkin Vohidov. *Tanlangan asarlar*. 3-jild. – Toshkent: Sharq nashriyot-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi, 2016.
3. Ulug‘bek Hamdam. *Yangilanish ehtiyoji*. – Toshkent: Ma’naviyat, 2007.
4. Ibrohim G‘afurov. *Adabiyot va ma’naviyat*. – Toshkent: Ma’naviyat, 2009.
5. Qozoqboy Yo‘ldoshev. *Adabiyot: o‘qituvchi va o‘quvchi kitobi*. – Toshkent: O‘qituvchi, 2017.
6. Kazi Nazrul Islom. *Tanlangan she’rlar*. – Toshkent: Jahon adabiyoti kutubxonasi nashrlari.
7. [ZiyoNET elektron ta’lim portali](#) (mavzu bo‘yicha qo‘shimcha ma’lumotlar uchun).
8. [O‘zbekiston Milliy kutubxonasi](#) elektron resurslari